

INGLIZ TILINI O`RGANISHDA LUG'ATLARNING AHAMIYATI VA MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Matkarimova Malika

Urganch davlat pedagogika Instituti Filologiya va tarix fakulteti Xorijiy til va
adabiyoti (ingliz tili) ta'lif yo'nalishi 2- **bosqich** talabasi)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada elektron lug'atlarni o'quv jarayonida qo'llash zamonaviy ta'limni
talabi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada elektron lug'atlarning funksionalligi,
ularning afzalliklari, kamchiliklari va muammola yechimlar ko'rsatilgan. Elektron
lug'atlarning tezlik, ma'lumotni topishda qulaylik, katta hajm, so'zning ovozli va
grafik tasviri, imlo tekshiruvi, matnning tushunarligi va yana boshqa turli xil
afzalliklari mavjud. Maqolada talabalar ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil
ishlar davomida elektron lug'atlardan foydalanish ularga o'qish malakasini
oshirishda qay darajada yordam berishi ham ko'rsatilgan. O'qituvchilar dars
jaranoyinida elektron lug`atlardan to`g`ri foydalanishi haqida ro`yiqnomalar ham
berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: elektron lug'at, mobil ilovalar, veb-ilova, darsni to`g`ri tashlik etish,
lug'at, xorijiy til.

Kirish

Dars jarayonida texnologiyalardan foydalanishning ko`p afzalliklari mavjuddir.
Elektron ma'lumotnomalar va lug'atlardan foydalanish o'quvchilarga chet tilidagi
ilmiy tadqidotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalash, talabalarni xorijga jalb qilish, chet
tilidagi kasbiy faoliyat, til va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.
Elektron lug'atlar vizualizatsiya sifatida ham foydalanish imkonini beradi. Ularning
multimedia xususiyatlari tufayli o'quvchilarning ko'rish va eshitish xotirasida
ma'lumotni yaxshi eslab qolish imkoniyatini taqdim etadi [1].

Dars jarayonida elektron lug'atlardan foydalanish chet tillarini o'rganishda foydali
va zarur vosita ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Elektron lug'atlarning o'quv
jarayonida universal vositaga aylanib bo`lganligining sababi leksik materiallarga



asoslanganligi, til va nutq orqali ma`lumot almashish imkoniyatini berishi, tarjima jarayonini tez va foydali qilishini aytishimiz mumkin [2].

Ammo, dars jarayonida elektron lug'atlar, mobil ilovalar va veb-tarjimonlardan foydalanishda bir qator kamchiliklarni hisobga olish va ularni bartaraf etish kerak. Elektron lug`atlar tarjima jarayonini aqliy faoliyatdan mexanik faoliyatga o'tkazadi. O`quvchilar yangi so`zga duch kelgan vaqtlarida lug`atlarga o`ylanmasdan, taxmin qilmasdan darrov murojaat qilishiga duch kelishimiz mumkin. Bu esa o`z navbatida o`quvchilarning yangi so`zning ma`nosini taxmin qilish va so`zni uzoq muddat davomida esda saqlash qobiliyatini pastaytirib yuboradi.

Yuqorida muammolarni haq qilish uchun o`qituvchidan darsni to`g`ri tashlik qilish hamda turli interaktive o`yinlardan foydalanish talab qilinadi. Ular dars jarayotida "aqliy hujum", "klaster", "qarorlar shajerasi" va shu kabi metodlardan foydalanish orqali o`quvchilarga so`zlarning ma`nolarini yaqindan tanishtirish mumkin. So`z fikri va tushunchalarini ekrin bayon qilishga undovchi o`yinlar o`qituvchilarga lug`atlarni o`zlashtirishga katta yordam beradi.

Imtihon va testlarda elektron tarjimonlardan foydalanish hali ham bahslidir. Ayrim ta`lim muassasalari nazoratlarda elektron lug`atlardan foydalanishga ruxsat bersa, ayrimlari bu haqqoni yaho chiqishiga to`sinqlik qiladi deb hisoblaydi [3].

Bu muammoni bartaraf etish uchun o`rgatuvchining o`zi lug`atagi so`zning ma`nolarini va ta`rifini mustahkam egallashi kerak. Yakuniy nazorat ishlarida faqat test bilan cheklanib qolmasdangina, "kim tez va to`g`ri", "o`g`zaki diktant" va "savol javobli baxslar" metodlaridan foylanish mumkin

Aksariyat hollarda uyga vazifalar tayyorlash jarajonida talabalar o`z bilimlaridan foydalanmay lug`atdan tayyor olingan tarjimani namoyish etishini kuzatishimiz mumkin. Uyga vazifalar chet tillarni o`zlashtirish, yangi lug`atlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga taqib qilishning ajralmas qismidir. Vazifalarni ko`r-ko`rona ko`chirish esa o`z navbatida ularning bilim salohiyatini pastaytiradi.

Muammoni hal qilishga o`qituvchilardan hushyorlik ta`lab qilinadi. O`qituvchilar lug`atdan ko`chirilgan va o`zi mustaqil o`zlanib o`z fikr va tajribalariga tayangan holda yozilgan mashqlarning farqini bilishi kerak. Uy ishlarini jamoviylar o`yinlar orqali baxolash va takshirish mumkin. Guruh bo`lish tashkil qilingan o`yinlar o`quvchilarning xotirasida yaxshi o`rnashibgina qolmasda, balki o`rganuvchilarga



ilmiy ishlar va imtihonlarda bu so`zlardan mustaqil va erkin foydalanish imkoniyatini beradi.

Darslarda elektron lug'at yordamida topshiriq va matnlarning tayyor tarjimasini olish imkoniyati ma'lum darajada salbiy omillarga olib keladi [4]. Salbiy jihat tarjima qilish usullarini o`zlashtirish bo'yicha erkin fikrlashga va mutaqil izlanishga undovchi masqlarini bajarishda o`quvchilar lug`atlarga beixtiyoriy ravishda murojaat qilishi bilan bog'liqidir. Bu esa tarjima jarayoni shunchaki tayyor mahsulot bilan almashtirilishiga va tayyor ma`lumotlaga tayanishga olib keladi [5].

“Zinama-zina”, “qarama-qarshi munosabat” va shu kabi erkin fikrlashga undovchi va lug`at boyliklari hamda tarjima qilish imkoniyatini nazorat qiluvchi mashqlar orqali o`quvchilar lug`atlarni qay darajada o`zlashtirishini nazorat qilishimiz mumkin.

Mashhur Chumarina elektron lug'atlarni qo'llashni afzallik va kamchiliklarini aytib o`tadi. U foydalanish, taqdimot, qidirish imkoniyatlari, texnik jihatlar va boshqa mezonlarni hisobga oladi. Kamchiliklar orasida telefon va kompyuterdan foydalanish zarurati, ko'zning charchashi takidlab o`tadi [6].

Yetarli va zamon ta`labiga javob beradigan kompyuterlar barcha ta`lim muassalarida ham topilavermaydi. Elektron lug`atlardan foydalanish uchun ayrim ustozlar o`quvchilarga shaxsiy mobila a`loqa vositalaridan foydalanishga ruxsab berishlariga guvoh bo`lishimiz mumkin. Telefon va kompyuterlardan ko`p foydalanish o`quvchilarning ko`zlarga salbiy ta`sir qilishi mumkin.

Elektron lug'atlardan foydalanishning boshqa kamchiliklari qatorida lug'atlar sonining yetarlicha ko`p emasligi va lug'at bazasini zamon talablariga mos holatda saqlash muammosi ham mavjud. Lug`atlar fanning barcha sohalarini qamrab olishi va foydalanuvchiga ko`plab afzalliklar yaratib berishi kerak. Biroq, bu muammolar qog'oz lug'atlarda ham mavjuddir. Elektron lug`atlar bosma nashlarga qaraganda ishonchliroqdir. Kompyuter leksikografiyasining rivojlanishi, xususan, har xil turdagи yangi elektron leksikografik mahsulotlarni ishlab chiqish, bizningcha, zamonaviy amaliy tilshunoslikning istiqbolli talabidir.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Nesi H. Electronic dictionaries for understanding and mastering the vocabulary of a second language: current state. Euralex: European Association of Lexicography, 2021
2. Sinitsa A.I. The use of electronic dictionaries in the lessons of the Russian language and literature. Electronic journal «RONO». 2014
3. Gitman E.K., Timkin Yu.Yu. Information technologies in the process of teaching a foreign language at a university: monograph. Perm: Perm State Agricultural Academy Publ., 2014. 136
4. Ermetova, J., Teaching Synonymies in Language Classroom Through Literature. (Jane Eyre). Journal of new century innovations, 30(4), 2023, 45-48.
5. Belyaeva L.N. The potential of automated lexicography and applied linguistics. Izvestia: Humanitarian and scientific journal of Herzen University. 2010. 70–79
6. Chumarkina G.R. Comparative characteristics of electronic and paper dictionaries in the functional aspect. Bulletin of the Chuvash University. 2009. No. 4. Pp. 265–270